KIBERBULLING VA ONLAYN TA'QIBNING PSIXOLOGIK OQIBATLARI

Azimova R. Z.,GDPI o‘qituvchisi
Sayliyeva U. S., GDPI talabasi

Anatatsiya. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va ularning afzalliklari,kiberbulling haqida tushuncha va asosiy mazmun mohiyati, kiberbulingdan himoyalinsh usullari,onlayn ta'qibning inson ongiga ta’siri va shakllanishi,shuningdek psixologik oqibatlari haqida keng tushuncha berilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli texnalogiyalar, kiberbuling, zamon, vaqt, internet, qulaylik, vaziyat,xavfsizlik,axborot, platforma, kompyuter, texnalogiya, resurs, tizim, agressiya, huquq,qonun,raqamlashtirish.

Anatation. This article provides a detailed understanding of the development of digital technologies and their benefits, the concept and content of cyberbullying, ways to protect against cyberbullying, the impact and formation of online learning, as well as psychological consequences.

Key words: digital technologies, cyberbulling, time, internet, convenience, situation, security, information, platform, computer, technology, resource, system, aggression, law, law, digitalization.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi hayotimizda ko‘plab qulayliklarni yaratmoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida odamlar o‘z faoliyatini ancha osonlashtirib, samaradorligini oshirmoqda.Vaqt tejalyabdi,shuningdek insonlar istalgan vaqtda ta'lim olishi yoki turli xil ehtiyojlarini onlayn shaklda birgina telefon orqali bajarish imkonini ham yaratib berdi.

Avvalo, raqamli texnologiyalar axborotga tezkor kirish imkoniyatini yaratdi. Internet orqali istalgan vaqtda va dunyoning istalgan nuqtasida kerakli ma’lumotni topish mumkin. Endi kutubxonalarda soatlab kitob qidirishga ehtiyoj qolmayapti, birgina smartfon yoki kompyuter yordamida kerakli ma’lumot bir necha daqiqada topiladi. Birgina kitoblar bilan cheklanib qolmasdan shu kitob bo‘yicha tayyorlangan turli video darslarni ham o‘rganish imkoniyati yaratilgani,yoshlarni ko‘proq vaqtini tejash orqali kerakli bilimlarni tez va oson tarzda o‘rganish imkoniyatlarini ham yaratgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalar muloqotni ham ancha osonlashtirdi. Telefon, elektron pochta (email), videokonferensiya kabi vositalar orqali odamlar tez va qulay tarzda aloqa o‘rnatmoqda. Ayniqsa, masofaviy ta'lim va ish tizimining rivojlanishi bu qulayliklarni yanada oshirdi.Uzoq masofada bo‘lgan insonlar bilan muloqot qilish imkoniyatini ham yaratdi.Dars jarayonlarini ham masofadan turgan holda o‘zlashtirish anchagina osonlashdi..

Raqamli texnologiyalar ish samaradorligini oshirishda ham katta rol o‘ynamoqda. Kompyuter dasturlari va avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida ko‘plab vazifalar qisqa vaqt ichida, yuqori aniqlik bilan bajarilmoqda. Bu esa nafaqat vaqtni, balki mablag‘ va mehnat resurslarini ham tejash imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylangan. Ular hayotimizni qulayroq, samaraliroq va tezroq qilmoqda. Kelajakda raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan bizni yanada ko‘proq imkoniyatlar kutmoqda.Ammo raqamli texnalogiyalarni ham 100foiz ishonchli va xavfsiz deya olmaymiz,sababi bugungi kunda ham haligacha turli xil noqulayliklarni ham vujudga keltirmoqda.Bunday vaziyatlarning paydo bo‘lishida asosiy sabab insonlarning raqamli texnalogiyalardan noto‘g‘ri maqsadda foydlanishi va bir-birlariga shu orqali xavf solishi natijasida raqamli texnalogiyalar ham xavfli bo‘lib bormoqda.

Bugungi raqamli dunyoda internet va ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Odamlar bir-biri bilan tez va oson muloqot qilish imkoniga ega bo‘lishdi. Ammo texnologiya rivoji bilan birga yangi muammolar ham paydo bo‘ldi. Ulardan biri — kiberbulling, ya'ni odamlarni internet orqali tahqirlash, xo‘rlash va ruhiy zarar yetkazishdir. Kiberbulling ko‘pincha bolalar va o‘smirlar orasida uchraydi, lekin har qanday yoshdagi odamlar ham bu hodisaga duch kelishi mumkin. Asosan bunday holatga axborotlarni to‘g‘ri tahlil qila olmaydigan,raqamli texnalogiyalarning imkoniyatlarini to‘liq anglab yetmagan insonlar uchun ko‘proq xavf solmoqda.

Kiberbulling turli shakllarda bo‘lishi mumkin. Masalan, odamni ijtimoiy tarmoqlarda masxara qilish, haqorat qilish, tahdidli xabarlar yuborish, shaxsiy ma'lumotlarini tarqatish yoki uning ruxsatisiz fotosurat va videolarini ommaga yoyish. Ba'zan kiberbulling ko‘rinmaydigan, lekin kuchli ruhiy zarba yetkazadigan shaklda bo‘ladi.Inson ongini zaharlaydigan turli xil yod g‘oyalarni tarqatish,axborotlarning ishonchlilik darajasining juda past ekanligi,shuningdek vaqtni har xil zararli o‘yinlarga sarflash natijasida agressiv bo‘lib qolishi ham mumkin.

Jabrlanuvchining o‘zini past baholashi umidsizlik va nochorlik holatini yanada kuchaytiradi. Ta’qibchi bilan „yolg‘iz“ qolsa, tashqaridan yordam yoki yordam kutish qiyin: agar salbiy video tarmoqqa kirsa, qisqa vaqt ichida u ko‘plab ko‘rishlar soniga ega bo‘ladi.

Kiberbulling zamonaviy jamiyatning jiddiy muammolaridan biridir. Har bir inson internetda o‘zini xavfsiz his qilishi kerak. Bu esa faqat umumiy harakatlar — ota-onalar, o‘qituvchilar, jamiyat va texnologiya sohasidagi mutaxassislarning birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan amalga oshadi. Kiberbullingga qarshi kurashish, odamlarni himoya qilish va internetni yanada sog‘lom, ijobiy muhitga aylantirish har birimizning vazifamizdir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak onlayn ta’qib inson ruhiyatiga katta zarar yetkazadi. Kiberbuling natijasida qurbonlarda depressiya, o‘z-o‘zini past baholash,ijtimoiy izolatsiya va hatto o‘ziga zarar yetkazish kabi jiddiy psixologik muammolar rivojlanadi. Bunday ta’qib faqat onlayn hayotni emas, balki real hayotdagi o‘qish,ish faoliyati va shaxsiy munosabatlarga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, onlayn ta’qibning oldini olish,qurbonlarga o‘z vaqtida psixologik yordam ko‘rsatish va jamiyatda raqamli madaniyatni oshirish juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.O‘zbekiston Respublikasi ,,Axborot xavsizligi to‘g’risida’’gi qonuni.
2.UNESCO (2022).cyberbullying and its impact on youth mental health.
3.https://www.mintrans.uz/gender-tenglik-asosiy-inson-huquqlaridan-biri
4.https://uz.wikipedia.org/wiki/Gender_tengligi
Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “Ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan talaba xotin-qizlarning oliy ta’lim olishini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.09.2021-y., 09/21/585/0888-son; 09.06.2022- y., 09/22/322/0506-son